



YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT YO'NALISHLARI

Sultonova Aziza Uktamovna*Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi*

Annotatsiya: *“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichini belgilab, besh ustuvor yo‘nalish – ta‘lim, sog‘liqni saqlash, biznesni rivojlantirish, adolatli sud tizimi va ekologik barqarorlikni qamrab oladi. Strategiya BMT barqaror rivojlanish maqsadlariga mos bo‘lib, inson qadri va xalq manfaatlarini ustuvor qiladi.*

Kalit so‘zlar: *2030 strategiyasi, taraqqiyot, Barqaror rivojlanish, ta‘lim tizimi, sog‘liqni saqlash, adolatli sud, ekologik barqarorlik, xalq manfaatlari*

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida yaqin va kelajakdagi yurtimiz rivojlanish tendensiyalari yo‘lini belgilab bergan. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlab o‘tganidek, “Hozirgi kunda Yangi O‘zbekistonni barpo etishda asosiy e‘tiborni beshta ustuvor yo‘nalishga qaratmoqdamiz. Bular, avvalo, sifatli ta‘lim tizimini yo‘lga qo‘yish, biznesni rivojlantirish, korrupsiyadan xoli, adolatli sud tizimini yaratish, sog‘liqni saqlash sohasini tubdan yaxshilash, ekologik barqarorlikni ta‘minlashdan iborat” [1].

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2023-yil 11-sentyabrda imzolangan “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”[2]gi farmon hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror jamiyatimiz ideosferasidagi o‘zgarishlar dinamikasi va istiqbolidagi o‘zgarishlar uchun tayanch bo‘ldi. Mana shunday huquqiy asosda “O‘zbekiston – 2030” taraqqiyot strategiyasi qabul qilinib, mazkur strategiya BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga hamohang bo‘lib, prezidentimiz ta‘biri bilan aytganda, “biz o‘z zimmamizga olgan barcha majburiyatlarni to‘la va qat‘iy bajarmoqdamiz” [3].

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari:





1) Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish;

2) Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash;

3) Suv resurslarini tejash va atrof muhitni muhofaza qilish;

4) Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish;

5) Mamlakatni xavfsiz va tinchliksevar davlatga aylantirish ishlarini davom ettirish.

Mazkur 5 ta yo'nalish va 100 ta maqsadni o'zida jamlagan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi mamlakatimiz Taraqqiyot strategiyasini hayotga tadbiq etish jarayonida orttirilgan tajriba, yutuqlar va keng jamaotchilik muhokamasi hosilasi sifatida yuzaga keldi. Ta'kidlash joizki, mazkur xalqchil strategiya mamlakatimizda keyingi 7 yil davomida barqaror iqtisodiy rivojlanishimiz orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan joy olishi, jahon standartlari va aholi talab va ehtiyojlariga muvofiq keladigan sifatli ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini yuksaltirish, fuqarolar uchun ekologik toza sharoitlarni yaratish, xalq manfaatini ko'zlaydigan adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish, mamlakatimiz xavfsizligi va suverenitetini kafolatli himoya qilish singari konstruktiv g'oyalarni o'z ichiga olgan. Shavkat Mirziyoyev bu haqida to'xtalib o'tar ekan, "xalq manfaatini ta'minlash, inson qadrini ulug'lashga qaratilgan harakatlarni davom ettirish maqsadida "O'zbekiston – 2030" strategiyasini ishlab chiqdik. Uning loyihasini muhokamaga qo'yganimizda 1 milliondan ko'p takliflar kelib tushdi. Bu nimadan dalolat? Xalqimiz befarq emas. Yo'nalishlarimizni, kamchiliklarimizni ko'rsatib beryapti. Bu biz uchun "yo'l xaritasi". Davlatga eng katta hakam – xalq" [4], – deb ta'kidlaydi.

Aholining "O'zbekiston – 2030" strategiyasining real voqelikka aylanishi bo'yicha taklif va tavsiyalari tizimlashtirilgan holda tahlil etilib, erishilgan natijalarga muvofiq, Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga to'siq bo'layotgan muammo va omillar aniqlanib, ularni oldini olish va to'liq amalga oshirish bo'yicha choralar ko'rilmogda. Bunday jamiyat ideosferasidagi o'zgarishlar strategiyamizda belgilangan maqsad va vazifalarning ijrosini ta'minlanishida xalq tashabbusi, uning fikr va takliflari doimiy e'tiborda bo'layotganligini ko'rsatmogda. Zotan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasidan



kutilayotgan maqsad bu yurtimizda inson qadr topgan, odamlar bugungi hayotdan rozi bo'lib, orzu–maqsadlari ro'yobga chiqadigan davlat barpo etishdir.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi //“Xalq so'zi” gazetasi, 2024-yil 1-sentyabr, №179 (8802).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF–158–sonli Farmoni //Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-yil, 06/23/158/0694-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi //“Xalq so'zi” gazetasi, 2023-yil 20-sentyabr, №197 (8540).
4. Prezident davlatimizning yuksak mukofotlarini topshirdi //“Xalq so'zi” gazetasi, 2023-yil 31-avgust, №182 (8525).
5. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.
6. Sobirovich, T. B. (2022). A study of national and universal principles of democracy. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(5), 417-421.
7. Turdiev, B. S. (2024). Balancing national and universal perspectives: the dialectical dynamics in society's ideosphere. Asian Journal of Basic Science & Research, 6(3), 59-65.